



## THE LEGAL NATURE OF THE DECISIONS OF THE SUPREME COURT PLENUM

*Ulugbek Rustamovich Choriyev*

*Tashkent State University of Law*

*Faculty of Public Law, 3rd-year student*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Plenum of the Supreme Court, Plenum decision, legal force, judicial practice, regulatory legal acts, law enforcement practice, judicial power, interpretation of laws, judicial system, rule of law, regulatory decision.

**Received:** 01.06.26

**Accepted:** 02.06.26

**Published:** 03.06.26

**Abstract:** This article analyzes the legal force and nature of the decisions made by the Plenum of the Supreme Court. The decisions of the Plenum play a crucial role in ensuring the uniform interpretation and application of legal norms in judicial practice. The study examines the position of Plenum decisions within the system of regulatory legal acts, their impact on the activities of courts, and their role in ensuring the correct application of laws. Their legal force is analyzed based on regulatory frameworks, and the experience of other countries in this field is highlighted through the study of foreign expertise. The article emphasizes the importance of the Supreme Court Plenum decisions in developing judicial practice in a unified direction, eliminating contradictions in law enforcement, and effectively protecting the rights and freedoms of citizens.

## OLIY SUD PLENUMI QARORLARINING HUQUQIY TABIATI

*Ulug'bek Rustamovich Choriyev*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Oliy sud Plenumi, Plenum qarori, yuridik kuch, sud amaliyoti, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti,

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Oliy sud Plenumi qarorlarining yuridik kuchi hamda huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Sud amaliyotida qonun normalarini bir xil talqin

sud hokimiyati, qonunlarni talqin qilish, sud tizimi, huquqiy davlat, normativ qaror.

qilish va qo'llashni ta'minlashda Plenum qarorlarining o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida Plenum qarorlarining normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi o'rnini, ularning sudlar faoliyatiga ta'siri hamda qonunlarni to'g'ri qo'llashni ta'minlashdagi roli o'rganiladi. Uning yuridik kuchi normativ asoslar asosida tahlil qilinadi va chet el tajribasini o'rganish orqali dunyoning boshqa mamalakatlarining mazkur sohadagi tajribasi yoritib beriladi. Maqolada sud amaliyotini yagona yo'nalishda rivojlantirish, huquqni qo'llashdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini samarali himoya qilishda Oliy sud Plenum qarorlarining ahamiyati yoritiladi.

---

## ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ПОСТАНОВЛЕНИЙ ПЛЕНУМА ВЕРХОВНОГО СУДА

*Улугбек Рустамович Чориев*

*Ташкентский государственный юридический университет*

*Факультет публичного права, студент 3 курса*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Пленум Верховного Суда, постановление Пленума, юридическая сила, судебная практика, нормативно-правовые акты, правоприменительная практика, судебная власть, толкование законов, судебная система, правовое государство, нормативное постановление.

**Аннотация:** В данной статье анализируются юридическая сила и правовая природа постановлений Пленума Верховного Суда. Постановления Пленума играют ключевую роль в обеспечении единообразного толкования и применения норм права в судебной практике. В ходе исследования изучаются место постановлений Пленума в системе нормативно-правовых актов, их влияние на деятельность судов, а также их роль в обеспечении правильного применения законов. Юридическая сила данных актов анализируется на основе нормативных актов, а также освещается опыт зарубежных стран в данной сфере. В статье подчеркивается значение постановлений Пленума Верховного Суда в развитии судебной практики в едином направлении, устранении противоречий в правоприменении и эффективной защите прав и свобод граждан.

**Kirish.** Zamonaviy huquqiy davlatda sud hokimiyati jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Sudlar tomonidan qonun normalarini bir xil va to'g'ri qo'llash esa adolatli sudlovni amalga oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari sud amaliyotini bir xilda shakllantirish hamda qonunlarni to'g'ri talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud amaliyotini to'g'ri qo'llash tushunchasiga qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, bu - qonun normalarini yagona tarzda talqin qilish, dalillarni xolisona baholash, protsessual qarorlarni asoslangan holda qabul qilish va Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish orqali odil sudlovni ta'minlashdir. Bu jarayon sud qarorlarining barqarorligi va qonuniyligini kafolatlashga yordam beradi. Oliy Sud Plenumining asosiy vazifasi sud amaliyotini umumlashtirishdan iborat. Plenum qonunchilikning qo'llanishi bo'yicha tushuntirishlar beradi. Mazkur tushuntirishlar quyi sudlar uchun majburiydir. Ta'kidlash joizki, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda Oliy Sud Plenumining tushuntirishlari qonunchilikda normativ-huquqiy hujjat sifatida e'tirof etilmagan.[2] Shunday bo'lsa-da, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda Oliy Sud Plenumi tushuntirishlari quyi sudlar uchun majburiy deb belgilangan. Oliy Sud Plenumi tushuntirishlaridan tergov jarayonida ham foydalaniladi. Sababi ish sudga oshirilsa, sudlar qonunlar bilan bir qatorda Oliy Sud Plenumi tushuntirishlariga tayangan holda ish yuzasidan oxirgi qarorini qabul qiladi.[3] Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarorlarining huquqiy tabiati, ularning normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi o'rnini hamda sud amaliyotiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Plenum qarorlarining sudlar faoliyatida qonunlarni to'g'ri qo'llashni ta'minlashdagi ahamiyati ham ilmiy-huquqiy jihatdan yoritiladi. Plenum qarorlarining yuridik kuchini aniqlash, ularning huquqiy tabiati va oqibatlarini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishda biz faqatgina O'zbekiston bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy davlatlarning tajribasini ham o'rganish orqali mazkur jarayonni yanada chuqurroq tushunishga harakat qilamiz.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotning maqsadi Oliy sud Plenumi qarori tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash hamda uni O'zbekiston va xorij tajribasiga tayangan holda o'rganib, tahlil qilishdan iborat. Mazkur jarayon inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlari, huquqiy davlatda qonuniylikni ta'minlash va sud amaliyotida qonun normalarini bir xillikda qo'llashdagi samaradorlik masalalari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun tadqiqotda huquqiy tahlil, kontent tahlili, tizimli o'rganish va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Huquqiy tahlil yordamida mazkur tizimning normativ asoslari hamda ularning amaliy qo'llanish mexanizmlari o'rganildi. Kontent tahlili

mavjud ilmiy manbalardagi faktik ma'lumotlarni tizimlashtirish va ularning mohiyatini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali esa xorijiy davlatlarda mavjud bo'lgan tajribalar o'rganildi. Ushbu izlanish mazkur sohadagi tajribalarini kengaytirishga va xalqaro amaliyotdan foyda olishga yordam berdi. Bundan tashqari, sistemali (tizimli) yondashuv metodi asosida sud hokimiyati tizimi hamda Oliy sud Plenumining sud amaliyotini shakllantirishdagi roli o'rganildi. Mazkur metod orqali Plenum qarorlarining sudlar faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri va huquqni qo'llash amaliyotidagi ahamiyati yoritildi. Eng asosiysi, tadqiqot natijasida Oliy sud Plenumi tomonidan chiqariladigan qarorlarni yuridik kuchi maslasi atroflicha o'rganildi. Natijada, ushbu metodik yondashuvlar orqali mazkur tizimning tahlilini osonlashtirish va samaradorligini baholash imkoniyati paydo bo'ldi.

**Tadqiqot natijalari.** Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy tabiatini aniqlashda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida o'ziga hos o'ringa ega. Bir tomondan, ular normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasiga kirmaydi, ikkinchi tomondan esa, barcha quyi sudlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiy kuchga ega. Biz birinchi navbatda Oliy sud Plenumining qarori qanday tartibda qabul qilinishi normativ asoslar bilan birgalikda tahlil qilib olamiz. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risidagi" qonunining 23-moddasida ushbu tartib batafsil tushuntirib berilgan bo'lib unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi. Mazkur qonunning 24-moddasida esa "Qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir." [4] degan normani ko'rishimiz mumkin. Biz ushbu normani sharhlash orqali Plenum qarorlari har bitta tegishli qonun normasini qo'llayotgan organ uchun majburiydir, faqatgina sudlar uchun emasligiga guvoh bo'lamiz. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, Plenum qarorlarisiz sud hokimiyatining barqarorligini ta'minlash qiyinlashishi mumkin. Agar har bir sudya qonunni o'zining subyektiv huquqiy ongidan kelib chiqib talqin qilganida, bir xil turdagi ishlar bo'yicha turli viloyatlarda turlicha qarorlar chiqishi holati vujudga kelish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin edi. Professor Kwiatkowski

talqiniga ko`ra kontinental huquq oilasiga mansub bo`lgan mamalakatlarda Oliy Sud Plenumi qarorlariga nisbatan 3 ta qarashni shakllantirgan. Birinchidan, ular oddiy sud qarori. Ikkinchidan, ular alohida turdagi sud aktlari va klassik sud hukmi emas, vanihoyat uchinchidan, ular qonunni sharhlovchi protsessual hujjat hisoblanadi.[16] Lekin O`zbekistonda Plenum qarorlari aynan qonunchilikni bir xil qo`llash uchun chiqariladigan sharhlovchi protsessual hujjat hisoblansa ham, uning maqomi klassik sud hukmi emas balki maxsus sud aktlariga o`xshash shaklda bo`ladi. Huquqshunos M.Yodgorovning ta`kidlashicha Jinoyat-protsessual huquqida ham Oliy Sud Plenumi qarorlari muhim ahamiyatga ega. "Bizning fikrimizcha, O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlaridagi normalar O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi normalarini aniq va tushunarli tarzda qo`llashga yordam beradi. Masalan, Jinoyat-prosessual kodeksining 503-moddasida "hukm ustidan shikoyat yoki protest bergan shaxs o`z shikoyati yoxud protestini qaytarib olishga haqli" ekanligi belgilangan. Bizningcha, ushbu norma birmuncha tor doirada va noaniq bayon etilgan. Sababi, agar jarayon ishtirokchilari bir necha kishidan iborat bo`lsa va ulardan biri kassatsiya shikoyatini qaytarib olsa, ish yuritish qanday davom ettiriladi? Jinoyat-prosessual kodeksining 503-moddasida bu borada hech qanday norma mavjud emas. Ayni shu holatda biz O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy ko`rsatmalari qanday o`rin tutishini ko`rishimiz mumkin. Unga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 15-maydagi "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko`rish amaliyoti to`g`risida"gi 11-sonli qarori 6-bandining uchinchi xatboshisida shunday deyilgan: "Kassatsiya shikoyati (protesti)ning qaytarib olinishi, agar ish bo`yicha boshqa prosessual ishtirokchilar tomonidan berilgan kassatsiya shikoyati (protesti) bo`lmasa, kassatsiya instansiyasi sudining ish yuritishni tugatishiga asos bo`ladi". Aynan ushbu norma orqali biz shuni tushunishimiz mumkinki, kassatsiya shikoyati (protesti) qaytarib olingan taqdirda, agar ishda boshqa ishtirokchilarning shikoyati (protesti) mavjud bo`lsa, ish yuritish o`sha shikoyat (protest) asosida davom ettirilishi kerak." - deya bevosita plenum qarorini normani noaniq qismini sharhlashdagi ahamiyatini ochib bergan.[15]

Huquqshunos Bunyod Hakimovning fikricha sud amaliyotining bir xilligi tushunchasi haqida bir nechta ilmiy qarashlar mavjud. Ushbu nazariyalar asosan ikki guruhga bo`linadi: 1) Formal bir xillik; 2) Mazmuniy bir xillik.

Formal bir xillik nazariyasiga ko`ra, Oliy sud muayyan turdagi ishlarni ko`rib chiqish uchun ma`lum bir hal qilish usulini ishlab chiqadi va boshqa sudyalari ham ishlarni aynan shu usul asosida hal qiladilar. Shu sababli Oliy sud tomonidan berilgan qonun talqini va uni qo`llash usuli yagona to`g`ri talqin hisoblanadi. Agar sud qarori Oliy sud talqinidan farq qilsa, bunday qaror bekor

qilinishi mumkin. Agar sud amaliyotini bir xillashtirishga asos bo'lgan Oliy sudning huquqiy pozitsiyasi inson huquqlarini buzadigan bo'lsa ham, quyi instansiya sudyalari uni rad etish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday sud amaliyoti bir xilligi Konstitutsiyada belgilangan sud hokimiyati maqsadlariga zid bo'lishi mumkin. Qonunni faqat formal tarzda talqin qilish va uning mazmunini e'tiborga olmaslik huquq ustuvorligi tamoyiliga mos kelmaydi. Formal talqin inson huquqlari va huquqiy prinsiplarga rioya etilishini ta'minlamaydi. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi sud amaliyotining bir xilligini aynan shu formal yondashuv asosida ta'minlamoqda. Shu bilan birga, qonunni qo'llashda sudyalar uning huquqiy prinsiplar va inson huquqlari nuqtai nazaridan qonuniyligini ham baholashi kerak.

Mazmuniy bir xillik nazariyasiga ko'ra, Oliy sud ishlarni hal qilish modeli yaratishda huquqiy prinsiplarga va qonun normalariga tayanadi hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli sud amaliyotini bir xillashtirish sudyalarning o'zboshimchalik bilan qaror qabul qilishining oldini olish hamda inson huquqlarini buzadigan qarorlarning chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, sud amaliyotini bir xillashtirishni sud hokimiyatining mavjud qonunlarni qo'llash bo'yicha siyosati sifatida ko'rish maqsadga muvofiq emas.[5]

Rossiya huquq tizmidagi ham Oliy sud Plenumining qarori o'z o'rniga ega, odatda bunday tuzdagi qarorlar sud amaliyotini birxillashtirish uchun chiqarilishi ko'plab ilmiy asoslarga ega bo'lsa ham, ba'zi olimlar bu funksiyani sudlarning huquq ijodkorligi funksiyasi deb hisoblashadi. Sovet qonunchiligi tahlili ham oliy sudlarda huquq ijodkorligi funksiyalari mavjudligini tasdiqlaydi. 1979-yildagi "SSSR Oliy sudi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, Plenumning rahbarlik tushuntirishlari qonunni qo'llayotgan barcha sudlar, organlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy edi.

Zamonaviy Rossiya amaliyotida ham bu masala dolzarb. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 126 va 127-moddalari Oliy sudga sud amaliyoti bo'yicha tushuntirishlar berish vakolatini beradi.[6] Diqqatga sazovor jihati shundaki, Rossiya Oliy Hakamligi sudi (2014-yilgacha mavjud bo'lgan) o'zining 2008-yildagi qarori bilan o'zi shakllantirgan huquqiy pozitsiyalarga orqaga qaytish kuchini (retroactive effect) bergan. Bu esa sud hujjatlarining sof normativ xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Rossiya Konstitutsiyaviy sudi ham ayrim hollarda oliy sudlar tomonidan berilgan tushuntirishlarning o'zgarishi ishlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'lishini tan olgan. Xulosa: Bugungi kunda Rossiya oliy sudlarining huquq ijodkorligi allaqachon amalga oshgan faktdir. Shu sababli, ushbu sud hujjatlarining yuridik tabiatini aniqlash va ularning Rossiya huquq manbalari tizimidagi o'rnini

o'rganish o'ta dolzarb masaladir deya ta'kidlaydi Kornev.A.V.[7] Rus olimi Nikolai V. Samsonov Oliy sud plenumi qarorlari formal jihatdan normativ-huquqiy hujjat maqomiga ega bo'lmasa-da, amaliyotda ular quyi sudlar uchun majburiy yo'naltiruvchi kuch kasb etishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, plenum qarorlari nafaqat qonunni sharhlaydi, balki ayrim hollarda huquqdagi bo'shliqlarni to'ldirib, yangi huquqiy qoidalar shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Samsonov bu orqali Rossiya huquq tizimida sud huquq yaratish elementi kuchayib borayotganini qayd etadi.[8] Lekin umumiy va normativ asoslarga tayangan holda Rossiyadagi Plenum qarorlari sud amaliyotini to'g'ri tashkillashtirish uchun chiqariladi degan qarorga kelishimz ham mumkin. Qozog'iston Respublikasida ham Oliy sud Plenumi qarorlari huquqiy tizimning ajralmas asosi hisoblanadi. Chunki Qozog'iston Respublikasida Plenum qarorlari nafaqat qonunchilikni birxillashtirish uchun tushunturish vazifasini o'taydi, balki ular normativlik xususiyatiga ham ega. Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasining birinchi qismida quyidagicha norma berilgan: "Qozog'iston Respublikasida amaldagi huquq bo'lib Konstitutsiya normalari, unga muvofiq qabul qilingan qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Respublikaning xalqaro shartnomaviy va boshqa majburiyatlari, shuningdek, Respublikaning Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudining normativ qarorlari hisoblanadi." [9] Mazkur modda Oliy sud normativ harakterga ega qarorlar chiqara olishining huquqiy asosi hisoblanadi. Parlament qonunlari barqaror va umumiy xarakterga ega, ular hayotning har bir detalini qamrab ololmaydi. Sud hokimiyati esa asosiy huquqni qo'llovchi organ sifatida, qonundagi ziddiyatlarni ko'radi va ularni 'qonunosti tartibga solish' darajasida hal qiladi deya takidlashgan Rysjanova, Axmet va Abdrasulov (2025).[10]

Yana ushbu olimlarning fikricha normativ qarorlar qonun bo'yicha normativ-huquqiy hujjat ekanligi faktining o'zi, avtomatik ravishda ularda yangi huquq normalari bor degan mantiqiy xulosaga olib keladi. Hatto qonunni aniqlashtirish xarakterida bo'lsa ham, normativ hujjatda yangi qoidalar bo'lmasligi mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, Oliy sud qonuniy bo'shliqni to'ldirayotganda, u qonunchilikka yangi "mazmun" kiritadi. Tahlilning eng qiziqarli qismi shundaki, mualliflar adqiqotlariga ko'ra Oliy sud qarorlari ichida klassik huquq normasining barcha elementlari mavjudligini isbotlab berishgan. Oliy sudning normativ qarorlari Qozog'iston (va O'zbekiston kabi mamlakatlar) huquq tizimida "iyerarxiyadan tashqaridagi maxsus akt" hisoblanadi. Ular qonun darajasida bo'lmasa-da, qonunning qanday ishlashini belgilab bergani uchun amaliyotda qonun bilan teng yuridik kuchga ega bo'lib qoladi. Lekin yana bir olim T. Zhaksylykuly normativ qarorlar bilan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi munosabat "yuridik kuch iyerarxiyasi" asosida tartibga solinishini qayd etgan. Uning ta'kidlashicha, agar normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan

hujjat qo'llaniladi. Bu yondashuv Oliy sud normativ qarorlarining huquq tizimidagi alohida o'rnini ko'rsatib beradi.[11] Mazkur holatlarni hisobga olgan holatda Plenum qarorlari sud pretsedentiga bir qancha jihatlari bilan o'xshash ekanini ko'rishimiz mumkin. . Sud pretsedenti – bu sudning ilgari ko'rilgan ish yuzasidan chiqargan qarori bo'lib, keyingi shunga o'xshash ishlarni hal etishda namunaviy huquqiy qoida sifatida qo'llaniladi. Shu bois, u nafaqat huquqni qo'llash, balki huquqni ijod etish vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. [14] Plenum qarorlari sud pretsedentiga majburiylik jihati bilan o'xshab ketishi mumkin, lekin sud pretsedenti kabi aniq bir ish yuzasidan chiqarilmaydi va sud pretsedenti esa aynan o'xshash mavzudagi ishlarni ko'rib chiqishda qo'llaniladi.

Huquqshunos M.Abdullayevaning fikriga ko'ra doim ham plenum qarorlari oddiy tushuntirish shaklida bo'lavermaydi. “Ta'kidlash joizki, Oliy sud Plenumining tushuntirishlari amaliyotda juda katta ahamiyatga ega. Ya'ni ba'zan qonun barcha masalalarni ham qamrab ololmasligi, hamma savollarga javob bermasligi mumkin. Ba'zan qonun hujjatlari bir-biriga zid bo'lishi ham mumkin. Mana shunday holatlarda huquqni sharhlash hujjati qonunlarni bir xilda qo'llash va tushunishda muhim rol o'ynaydi hamda ba'zan normativ qoidalar o'rnatadi.” deya keltirib o'tgan edi u. Bunga qo'shimcha qilib, M.Abdullayeva ba'zi Plenum qarorlari qonun bilan tartibga solinmagan masalalarni ham tartibga solgan holatlari kuzatilganini qayd etgan. Bunga misol qilib Oliy sud plenumining “Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi haqida”gi 12-son qarori keltirilgan bo'lib, ushbu qaror 1998-yil 12-aprelda qabul qilingan bo'lib, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan protsessual masalalar ham plenum qarorida yoritib o'tilgan.[12] Huquqdagi bo'shliqlar sharoitida sud qarorlari “vaqtinchalik huquqiy normaga” aylanishi xususida V.M. Juykov shunday qayd etadi: Huquqdagi bo'shliqlar har doim eng barqaror qonunchilik tizimlarida ham bo'lgan, mavjud va bo'ladi, chunki huquqiy tartibga solishni talab qiladigan hamma narsani oldindan ko'rish obyektiv ravishda mumkin emas. Bunday sharoitda sud amaliyoti ko'pincha huquq manbasiga aylanadi. Sudlar qonun analogiyasi yoki huquq analogiyasi asosida ayrim toifadagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini ishlab chiqishga majburdir.[13] Ushbu olimlarning fikrlari o'z asosini topgan va amaliyotda sodir bo'lgan holatlar sababli yuzaga kelgan. Oliy Sud plenumi qarorlari faqatgina huquqni qo'llash hujjati emas, balki, davlat huquqiy tizimida o'ziga hos xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar hisoblanadi. Shuning uchun ham Plenum qarorlarini konstitutsiyaga muvofiqligi masalasini tekshirish ham obyektiv zaruratdir.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra Oliy Sud Plenumi qarori O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Buning sabablari sifatida biz Plenum qarorlari qarorlari milliy huquq tizimida sud amaliyotini umumlashtirish va qonunlarni qo'llash

bo'yicha tushuntirishlar berish orqali quyi sudlar faoliyatida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi

Tahlil qilingan xorijiy tajriba, xususan Rossiya Oliy Sudi hamda Qozog'iston Oliy Sudi faoliyati shuni ko'rsatadiki, mazkur davlatlarda ham oliy sud organlari tomonidan qabul qilinadigan plenum yoki normativ qarorlar sud amaliyotini bir xilda qo'llashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida Oliy sud plenumi qarorlari sudlarga qonun normalarini qo'llash bo'yicha tushuntirishlar beruvchi huquqiy hujjat sifatida namoyon bo'lsa, Qozog'iston Respublikasida Oliy sudning normativ qarorlari amaldagi huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur qiyosiy tahlil yordamida biz har uchchala davlatda ham oliy sud qarorlari majburiy ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa sud amaliyotini takomillashtirish, ushbu jarayondagi izchillikni ta'minlash va har bir sud tomonidan normani xar xil sharhlashni oldini olish borasidagi muhim qism ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Lekin yaqin kelajakda Oliy Sud Plenumi qarorlarini yuridik kuchi va ularning ustidan amalga oshiriladigan nazorat masalasi ko'plab muhokamalarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham Plenum qarorlari uchun aniq normativ-huquqiy hujjat turini belgilash, albatta bu haqida O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi" qonuniga modda kiritish hamda Konstitutsiyaviy sud tomonidan Plenum qarorlarini ko'rib chiqish uchun maxsus tartib joriy qilish orqali biz huquq tizimida bir qancha islohotlarni amalga oshirishga erishishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023).
2. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida. (2021). O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'RQ-682
3. Toshkent davlat yuridik universiteti. (2024). Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
4. O'zbekiston Respublikasi. (2021, 28-iyul). Sudlar to'g'risida (O'RQ-703-sonli Qonun). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. Khakimov, B. (2023). The decision of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan – a means of unification of judicial practice. Tashkent State University of Law.
6. Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii [Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi]. (1993). Rossiyskaya Gazeta.
7. Kornev, A. V. (2012). Raz'yasneniya plenumov vysshikh sudov po voprosam sudebnoy praktiki kak spetsificheskaya forma sudebnogo pravotvorchestva v Rossii [Clarifications of the

plenums of higher courts on judicial practice as a specific form of judicial law-making in Russia]. *Vestnik Rossiyskogo universiteta druzhby narodov. Seriya: Yuridicheskiye nauki*, (4), 18–26.

8. Samsonov, N. V. (2019). Resolutions of the Plenum of the Supreme Court of the Russian Federation as a source of civil procedural law. *Russian Law Journal*, 7(2), 120–135.

9. Constitution of the Republic of Kazakhstan. (1995). Official website of the President of the Republic of Kazakhstan Akorda.

10. Rysjanova, G. S., Akhmet, B., & Abdrassulov, Y. B. (2025). Teoriya voprosa sudebnogo pravotvorchestva i normativnykh postanovleniy Verkhovnogo Suda Respubliki Kazakhstan [Qozog‘iston Respublikasi Oliy sudining normativ qarorlari va sud huquq ijodkorligi masalasi nazariyasi]. *Vestnik Instituta zakonodatel’sstva i pravovoy informatsii RK*, 80(3), 27–33.

11. Zhaksylykuly, T. (2013). Correlation of normative resolutions with normative legal acts in the Republic of Kazakhstan. *Rocznik Polsko-Wschodni*, 15, 21–30.

12. Абдуллаева, М. М. (2023). Суднинг ҳуқуқни шарҳлаш ҳужжатлари конституциявий назорат объекти сифатида. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*, 3(7). <https://doi.org/10.47390/1342V3IIY2023N7>

13. Жуйков, В. М. (1999). Роль разъяснений Пленума Верховного Суда Российской Федерации в обеспечении единства судебной практики и защиты прав человека. В *Комментарий к постановлениям Пленума Верховного Суда Российской Федерации по гражданским делам* (с. 5–23). Юристъ.

14. Choriyev, U. R. (2025). Sud pretsedenti tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(9), 472–476. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17514137>

15. Yodgorov, M. F. (2022). Role of decisions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan in criminal court proceedings. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(9), 471–476.

16. Kwiatkowski, Z. (2010). Legal nature of the Supreme Court resolutions. *Review of Comparative Law*, 15(2), 45–62.